

JOURNAL OF ENVIRONMENTAL AND LAND LAW (JELL)

LAW • ENVIRONMENT • SUSTAINABILITY • JUSTICE

OPEN
ACCESS

INTERNATIONAL
PEER-REVIEWED
JOURNAL



OUR FIELDS

- Land law and agrarian relations
- Environmental law and climate change
- Water law and transboundary cooperation
- Urban planning and zoning law
- Natural resources and energy law



OUR INDEXING



Google Scholar



Zenodo



DOI



OpenAIRE



Open Access



DOAJ



<https://unireview.uz/index.php/jell>



Published by
UniLex Global, Uzbekistan



VOLUME 1

ISSUE 1



JUNE 2026



"UNILEX GLOBAL" LLC

Ekologiya va yer huquqi jurnali / Journal of Environmental and Land Law

**June, 2026
VOLUME 1, ISSUE 1**



EDITORIAL TEAM

Editor-in-Chief, Tukhtashev Hikmatilla Ismatillaevich - Head of the Department of Legal Sciences, Doctor of Philosophy in Legal Sciences (PhD), TIIAME National Research University, Tashkent, Republic of Uzbekistan.

1. **Editorial Board Members Kholmuminov Juma Toshtemirovich** - Doctor of Legal Sciences (DSc), Professor, Department of Environmental Law, Tashkent State University of Law, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
2. **Editorial Board Members Fayziev Shukhrat Khasanovich** - Doctor of Legal Sciences (DSc), Professor, Department of Environmental Law, Tashkent State University of Law, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
3. **Editorial Board Members Uzakova Gozal Sharipovna** - Doctor of Legal Sciences (DSc), Professor, Department of Environmental Law, Tashkent State University of Law, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
4. **Editorial Board Members Narzullaev Olim Kholmamatovich**, Doctor of Legal Sciences (DSc), Professor, Department of Environmental Law, Tashkent State University of Law, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
5. **Editorial board members Kenjaev Rustam Khaydarovich**, Candidate of Legal Sciences (PhD), Professor, Head of the Department of Environmental Law, Tashkent State University of Law, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
6. **Editorial Board Members Utegenov Ongarbay Dariyabayeovich** - Doctor of Legal Sciences (DSc), Professor, Department of Finance, Tashkent University of Chemical Technology – International University, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
7. **Editorial Board Members Hayitov Hasan Shermatovich** - Candidate of Legal Sciences (PhD), Investigator, Shykhontohur District Division, Department for Combating Economic Crimes under the Prosecutor General's Office of the Republic of Uzbekistan, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
8. **Editorial Board Members Khodjaeva Aziza Bakhtiyarovna** - Doctor of Philosophy in Legal Sciences (PhD) "Academy of Labor and Social Relations" under the Federation of Trade Unions of the Republic of Uzbekistan, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
9. **Editorial Board Members Nishonov Abdulloh Ubaydulloh ugli** - Senior Lecturer Tashkent State University of Law, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
10. **Editorial Board Members Makhkamov Durbek Nematovich** - Doctor of Legal Sciences (DSc), Professor, Dean, Faculty of Public Law, Tashkent State University of Law, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
11. **Editorial Board Members Usmanov Muhammad Bahritdinovich** - Doctor of Legal Sciences (DSc), Professor, University of Public Safety of the Republic of Uzbekistan, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
12. **Editorial Board Members Juraev Yuldash Achilovich** - Doctor of Legal Sciences (DSc), Associate Professor Senior Researcher, Parliamentary Research Institute under the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
13. **Editorial Board Members Nurmatov Mirgolib Mirzayeich** - Doctor of Legal Sciences (DSc), Professor, Head of the Department of Special Legal Sciences and Military Diplomacy, University of Public Safety of the Republic of Uzbekistan, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
14. **Editorial Board Members Bobokulov Shoxnazar Ochilovich** - Candidate of Legal Sciences, Associate Professor, Acting Professor, Department of Legal Sciences, Tashkent International University, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
15. **Editorial Board Members Mirzaabdullaeva Matluba Rustamovna** - Candidate of Legal Sciences, Associate Professor Associate Professor, Department of Environmental Law, Tashkent State University of Law, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
16. **Editorial Board Members Allayorov Tulqin Ruziqulovich** - Doctor of Philosophy in Philology (PhD), Associate Professor Nizami Named Tashkent State Pedagogical University, Tashkent, Republic of Uzbekistan.



Original research article

TRANSCHEGARAVIY SUV RESURLARINI MUHOFAZA QILISHNING XALQARO HUQUQIY ASOSLARI

Xodjayeva Aziza Bahtiyarovna

O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi qoshidagi
Mehnat va ijtimoiy munosabatlar akademiyasi v.b. dotsenti,
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Rixsiyev Muhammadaziz Muzaffar o‘g‘li

“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti “Ekologiya va huquq”
fakulteti yurisprudensiya yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

MAQOLA MA’LUMOTI

Kalit so‘zlar:

Transchegaraviy suvlar,
xalqaro ekologiya huquqi, suv
resurslarini muhofaza qilish,
adolatli va oqilona
foydalanish, zarar
yetkazmaslik prinsipi,
davlatlararo hamkorlik,
ekologik xavfsizlik, Markaziy
Osiyo.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola transchegaraviy suv resurslarini muhofaza qilishning xalqaro-huquqiy asoslarini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda xalqaro ekologiya huquqining asosiy prinsiplari — adolatli va oqilona foydalanish, transchegaraviy zarar yetkazmaslik hamda davlatlar o‘rtasida hamkorlik qilish majburiyati — tizimli ravishda yoritiladi. Shuningdek, xalqaro konvensiyalar doirasida ushbu prinsiplarga oid normativ qoidalar va ularning amaliy qo‘llanilishi tahlil etiladi. Maqolada Markaziy Osiyo misolida suv resurslarining notekis taqsimlanishi, yuqori va quyi oqim davlatlari manfaatlari o‘rtasidagi ziddiyatlar hamda ekologik xavfsizlikka ta’sir etuvchi omillar o‘rganiladi. Tadqiqot yakunida transchegaraviy suv resurslarini muhofaza qilish samaradorligini oshirishga qaratilgan huquqiy va institutsional takliflar ishlab chiqiladi.

INTERNATIONAL LEGAL BASIS FOR THE PROTECTION OF TRANSBOUNDARY WATER RESOURCES

ARTICLE INFO

Keywords: Transboundary waters, international environmental law, water resource protection, equitable and reasonable utilization, no-harm principle, interstate cooperation, environmental security, Central Asia.

ABSTRACT

This article is devoted to the analysis of the international legal framework for the protection of transboundary water resources. The study systematically examines the key principles of international environmental law, including equitable and reasonable utilization, the obligation not to cause transboundary harm, and the duty of cooperation among states. It also analyzes the normative provisions of these principles and their practical implementation within international conventions. The article addresses the issues of unequal distribution of water resources in Central Asia, conflicts of interest between upstream and downstream states, and factors affecting environmental security. The study concludes with legal and institutional measures aimed at improving the effectiveness of transboundary water resource protection.

МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ОХРАНЫ ТРАНСГРАНИЧНЫХ ВОДНЫХ РЕСУРСОВ

ИНФОРМАЦИЯ СТАТЬИ

Ключевые слова:
трансграничные воды,
международное экологическое
право,
охрана водных ресурсов,
справедливое и разумное
использование, принцип
непричинения вреда,
межгосударственное
сотрудничество, экологическая
безопасность,
Центральная Азия.

АННОТАЦИЯ

В данной статье проанализированы теоретические и практические основы концепции зелёной экономики, её роль в обеспечении устойчивого экономического развития, а также значение в решении экологических проблем. В последние годы экологические проблемы, наблюдаемые в мировой экономике, изменение климата, сокращение природных ресурсов и вопросы энергетической безопасности всё больше усиливают необходимость перехода к модели зелёной экономики. В ходе исследования были изучены основные принципы зелёной экономики, вопросы использования возобновляемых источников энергии, эффективного использования ресурсов, внедрения энергосберегающих технологий и сокращения углеродных выбросов. Также проанализированы реформы, осуществляемые в Республике Узбекистан по переходу к зелёной экономике, и перспективные задачи в данной сфере. Результаты исследования показали, что зелёная экономика является важным фактором обеспечения экономического роста, экологической устойчивости и социального благополучия.

KIRISH

Transchegaraviy suv resurslarini muhofaza qilish masalasi zamonaviy xalqaro ekologiya huquqining eng muhim va dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda suv resurslarining global miqyosda cheklanganligi, iqlim o‘zgarishi, aholi sonining ortishi hamda iqtisodiy faoliyatning kengayishi natijasida davlatlar o‘rtasida suvdan foydalanish bilan bog‘liq huquqiy va siyosiy muammolar keskinlashib bormoqda. Markaziy Osiyo mintaqasi ushbu jihatdan alohida strategik ahamiyatga ega bo‘lib, Amudaryo va Sirdaryo kabi yirik transchegaraviy suv oqimlari bir nechta davlatlarning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy manfaatlarini bog‘lab turadi. Ushbu suv resurslaridan foydalanish masalasi mintaqa davlatlari o‘rtasida hamkorlikni talab etishi bilan birga, ayrim hollarda manfaatlar ziddiyatiga ham sabab bo‘lmoqda. Xalqaro ekologiya huquqi transchegaraviy suv resurslarini boshqarish va muhofaza qilishda bir qator asosiy prinsiplarga tayanadi. Jumladan, adolatli va oqilona foydalanish prinsipi, transchegaraviy zarar yetkazmaslik prinsipi hamda davlatlar o‘rtasida hamkorlik qilish prinsipi ushbu sohaning fundamental huquqiy asoslarini tashkil etadi. Ushbu prinsiplarga 1992-yildagi Yevropa iqtisodiy komissiyasining “Transchegaraviy suv oqimlari va xalqaro ko‘llarni muhofaza qilish va foydalanish to‘g‘risidagi konvensiyasi” (UNECE Water Convention) hamda 1992-yilgi Rio Deklaratsiyasi kabi xalqaro hujjatlar asos bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, 1997-yildagi BMTning “Xalqaro suv oqimlaridan kema qatnovidan boshqa maqsadlarida foydalanish to‘g‘risidagi konvensiyasi” suv resurslaridan foydalanishning asosiy huquqiy prinsiplarini mustahkamlovchi muhim xalqaro hujjat hisoblanadi. Biroq amaliyot shuni ko‘rsatadiki, mazkur xalqaro-huquqiy normalar mintaqaviy darajada to‘liq va samarali qo‘llanilmayapti. Bu esa suv resurslaridan foydalanishda nomutanosiblik, ekologik xavflarning ortishi hamda davlatlar o‘rtasidagi kelishmovchiliklarning kuchayishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, Markaziy Osiyo sharoitida yuqori oqim va quyi oqim davlatlari manfaatlari o‘rtasidagi tafovut ushbu muammoni yanada murakkablashtirmoqda. Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolaning maqsadi transchegaraviy suv resurslarini muhofaza qilishning xalqaro-huquqiy asoslarini tahlil qilish, Markaziy Osiyo mintaqasidagi mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy asoslangan takliflarni ishlab chiqishdan iboratdir.

METODOLOGIYA

Transchegaraviy suv resurslari deganda bir yoki bir nechta davlat hududidan oqib o‘tuvchi yoki ularning chegaralarini kesib o‘tadigan daryo, ko‘l, suv omborlari hamda yer osti suvlarining umumiy tizimi tushuniladi. Xalqaro huquq nuqtayi nazaridan bunday suvlar

davlatlarning suveren hududi bilan cheklanmagan bo‘lib, ularni boshqarish va ulardan foydalanish faqat milliy qonunchilik emas, balki xalqaro huquq normalari bilan ham tartibga solinadi. Transchegaraviy suv resurslarining o‘ziga xos xususiyati shundaki, ularning bir davlat tomonidan amalga oshirilgan har qanday suv xo‘jaligi faoliyati boshqa davlatlarning suv ta‘minoti, ekologik holati va iqtisodiy manfaatlariga bevosita ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli, ushbu resurslar “umumiy manfaatli tabiiy boyliklar” sifatida qaraladi va ularni boshqarishda hamkorlik tamoyili asosiy o‘rin tutadi. Umummanfaatli tabiiy boyliklar jamiyatning barcha a‘zolari manfaatiga xizmat qiluvchi va davlat tomonidan muhofaza qilinadigan tabiiy resurslar bo‘lib, ular qatoriga suv resurslari, yer, o‘rmonlar va yer osti boyliklari kiradi. Transchegaraviy suv resurslari ham ushbu toifaga kirib, ularni oqilona va adolatli boshqarish xalqaro ekologiya huquqining muhim talablaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida tabiiy resurslar, jumladan suv resurslari davlat mulki sifatida e‘tirof etilib, ularni oqilona foydalanish va muhofaza qilish davlatning konstitutsiyaviy majburiyati sifatida belgilangan. Shuningdek, ekologik xavfsizlikni ta‘minlash hamda fuqarolarning sog‘lom atrof-muhitda yashash huquqini kafolatlash konstitutsiyaviy darajada mustahkamlangan. Undan tashqari Konstitutsiyaning 17-moddasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi xalqaro huquqning umume‘tirof etilgan prinsip va normalariga rioya etadi hamda xalqaro shartnomalar asosida o‘zaro hamkorlikni amalga oshiradi. Bu esa transchegaraviy suv resurslarini boshqarishda xalqaro huquq normalarining muhim rolini belgilaydi. Markaziy Osiyo mintaqasida transchegaraviy suv resurslariga Amudaryo, Sirdaryo va ularning yirik irmoqlari kiradi. Ushbu daryolar mintaqadagi bir nechta davlatlar — O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmaniston — hududidan oqib o‘tadi. Natijada suv resurslaridan foydalanish masalasi nafaqat iqtisodiy, balki ekologik xavfsizlik va mintaqaviy barqarorlik bilan ham bevosita bog‘liqdir. Transchegaraviy suv resurslarining ahamiyati bir necha asosiy yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi. Birinchidan, ular qishloq xo‘jaligi uchun asosiy sug‘orish manbai bo‘lib xizmat qiladi va oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi. Ma’lumot yuzasidan aytish joizki mamlakatimizning qariyb 90 foizdan ortiq suv resurslari qishloq xo‘jaligi uchun sarflanadi. Ikkinchidan, ushbu resurslar gidroenergetika sohasida energiya ishlab chiqarish uchun strategik ahamiyatga ega. Uchinchidan, ular ekologik tizimlarning barqarorligini saqlash, cho‘llanish va yer degradatsiyasining oldini olishda muhim omil hisoblanadi. Bundan tashqari, transchegaraviy suv resurslari davlatlar o‘rtasidagi siyosiy va diplomatik munosabatlarga ham sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Suv resurslarining adolatli va

oqilona taqsimlanmasligi ko‘pincha mintaqaviy ziddiyatlarga sabab bo‘lishi mumkin. Shu bois xalqaro ekologiya huquqida ushbu resurslardan foydalanishda adolatli taqsimot, zarar yetkazmaslik va hamkorlik prinsiplari alohida ahamiyat kasb etadi. Xulosa qilib aytganda, transchegaraviy suv resurslari nafaqat tabiiy boylik, balki mintaqaviy xavfsizlik, iqtisodiy barqarorlik va ekologik muvozanatni ta‘minlovchi strategik omil hisoblanadi. Shu sababli ularni samarali boshqarish xalqaro huquq va davlatlararo hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

TRANSCHEGARAVIY SUV RESURLARINI MUHOFAZA QILISHNING ASOSIY XALQARO HUQUQIY PRINSIPLARI

Transchegaraviy suv resurslari xalqaro ekologik xavfsizlik va davlatlararo hamkorlikning strategik elementlaridan biri hisoblanadi. Amudaryo, Sirdaryo, Nil, Dunay kabi daryolar bir nechta davlat hududidan oqib o‘tishi sababli ularning boshqaruvi murakkab huquqiy va siyosiy masalalarni yuzaga keltiradi. Shu bois xalqaro huquqda transchegaraviy suv resurslaridan foydalanish va ularni muhofaza qilishga doir bir qator fundamental prinsiplar shakllangan. Xalqaro suv huquqida transchegaraviy suv resurslaridan foydalanishning asosiy va yetakchi tamoyili sifatida adolatli va oqilona foydalanish prinsipi e‘tirof etiladi. Ushbu prinsipga ko‘ra, har bir suv oqimi davlati o‘z hududida joylashgan xalqaro suv oqimidan foydalanishda boshqa manfaatdor davlatlarning huquq va manfaatlarini hisobga olgan holda, tenglik va muvozanat asosida harakat qilishi shart. Mazkur qoida 1997-yilgi BMTning xalqaro suv oqimlaridan foydalanish to‘g‘risidagi konvensiyasida normativ jihatdan mustahkamlangan bo‘lib, u xalqaro suv huquqining kodifikatsiyalashgan asosiy hujjatlaridan biri hisoblanadi.

1. Adolatli va oqilona foydalanishning huquqiy mazmuni Ushbu prinsipning mohiyati shundan iboratki, xalqaro suv oqimi bir davlatning mutlaq suveren yurisdiksiyasi ostidagi resurs emas, balki bir nechta davlatlar tomonidan birgalikda foydalaniladigan tabiiy tizim hisoblanadi. Shu sababli har bir davlat suv resursidan foydalanishda: boshqa suv oqimi davlatlarining manfaatlarini inobatga olishi; suv resursidan foydalanishda adolat va tenglik mezonlariga amal qilishi; suv oqimining tabiiy muvozanatini buzmasligi lozim. Shu bilan birga, prinsip suvdan foydalanishning “oqilonaligi”ni ham talab qiladi, ya’ni suv resursi faqat foydalanish obyekti emas, balki ekologik tizim sifatida ham saqlanishi kerak.

2. Optimal va barqaror foydalanish (sustainable utilization) talabi Konvensiya normalarida suv resurslaridan foydalanish optimal va barqaror (sustainable) bo‘lishi kerakligi alohida ta’kidlanadi. Bu quyidagi ikki asosiy jihatni anglatadi: optimal foydalanish

— suv resursidan iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatdan eng samarali tarzda foydalanish; barqaror foydalanish — mavjud avlod ehtiyojlarini qondirish bilan birga kelajak avlodlar huquqlarini ham himoya qilish.

Demak, suv resurslari ekspluatatsiya qilinadigan oddiy tabiiy boylik emas, balki uzoq muddatli ekologik boshqaruv obyekti.

3. Davlatlarning ishtiroki va hamkorlik majburiyati. Mazkur prinsip nafaqat huquqiy foydalanish imkoniyatini, balki davlatlar uchun aniq xalqaro-huquqiy majburiyatlarni ham belgilaydi. Xususan, suv oqimi davlatlari: suv resurslaridan foydalanishda teng ishtirok etishi; uni muhofaza qilish va rivojlantirishda hamkorlik qilishi; qo‘shma boshqaruv mexanizmlarini shakllantirishi lozim. Bu jihatdan transchegaraviy suv resurslari “milliy resurs” emas, balki umumiy manfaat obyekti sifatida qaraladi.

4. Adolatli va oqilona foydalanish prinsipi suv resurslarini ekspluatatsiya qilish bilan birga uning ekologik muhofazasini ham majburiy shart sifatida belgilaydi. Shu bois suvning ifloslanishi oldi olinishi; ekotizimlarning degradatsiyasi cheklanilishi bioxilma-xillik saqlanishi lozim. Bu esa prinsipni sof iqtisodiy kategoriya emas, balki ekologik-huquqiy kompleks norma sifatida ko‘rsatadi.

Xalqaro suv oqimlaridan adolatli va oqilona foydalanish prinsipi transchegaraviy suv resurslarini boshqarish tizimining asosiy ustunidir. U davlatlar o‘rtasida tenglik, hamkorlik va ekologik muvozanatni ta‘minlash orqali suv resurslaridan foydalanishni barqaror rivojlanish tamoyillari bilan uyg‘unlashtiradi. Shu jihatdan ushbu prinsip zamonaviy xalqaro ekologiya huquqining fundamental instituti hisoblanadi.

TRANSCHEGARAVIY SUV RESURLARINI TARTIBGA SOLISHDA XALQARO KONVENSIYALAR VA ULARNING RO‘LI VA AHAMIYATI

Transchegaraviy suv resurslarini boshqarish nafaqat ekologik, balki davlatlarning suvereniteti va iqtisodiy xavfsizligi bilan bog‘liq murakkab geosiyosiy jarayondir. Dunyodagi chuchuk suv zaxiralarining katta qismi ikki yoki undan ortiq davlat hududidan oqib o‘tishini hisobga olsak, xalqaro huquqiy mexanizmlar bu boradagi nizolarni oldini olishning yagona samarali vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Xalqaro konvensiyalar transchegaraviy suv ob'ektlaridan foydalanishda nafaqat nazariy qoidalar majmuasi, balki davlatlararo munosabatlarni barqarorlashtiruvchi asosiy huquqiy instrument hisoblanadi. Bugungi kunda xalqaro suv huquqining “kodifikatsiyalangan asosi” sifatida ikkita universal konvensiya e‘tirof etiladi:

1. 1992-yildagi Helsinki konvensiyasi ya'ni Transchegaraviy ochiq suv oqimlari va xalqaro ko'llarni muhofaza qilish hamda foydalanish bo'yicha konvensiya: Ushbu hujjat "ifloslantiruvchi to'laydi" va "ehtiyotkorlik" prinsiplarini ilgari suradi. Uning asosiy roli — transchegaraviy ta'sirlarning oldini olish, nazorat qilish va kamaytirish bo'yicha davlatlararo hamkorlikni institutsional darajaga ko'tarishdir.

2. 1997-yildagi "UN watercourses convention" ko'ra: Mazkur konvensiya transchegaraviy suv obyektlaridan foydalanishda "adolatli va oqilona foydalanish" (equitable and reasonable utilization) prinsipini huquqiy norma sifatida mustahkamladi. Bu prinsip yuqori va quyi oqim davlatlari manfaatlarini muvozanatlashtirishda bosh mezon hisoblanadi.

Xalqaro konvensiyalar transchegaraviy suv munosabatlarida quyidagi muhim rollarni bajaradi:

- Prinsiplarni standartlashtirish: Konvensiyalar davlatlar uchun majburiy bo'lgan "o'yin qoidalarini" belgilaydi. Masalan, "boshqa davlatga sezilarli zarar yetkazmaslik" (no-harm rule) majburiyati xalqaro odat huquqidan yozma norma darajasiga ko'tarilgan.

- Ma'lumot almashish mexanizmi: Aksariyat konvensiyalar davlatlarga suv sathi, sifati va rejalashtirilayotgan gidrotexnik inshootlar haqida muntazam ma'lumot almashish majburiyatini yuklaydi. Bu esa "shaffoflik diplomatiyasi"ni shakllantiradi.

- Nizolarni tinch yo'l bilan hal etish: Konvensiyalar doirasida tashkil etiladigan qo'shma komissiyalar va xalqaro arbitraj mexanizmlari suv mojarolarini siyosiy darajadan huquqiy tekislikka olib chiqish imkonini beradi.

Xalqaro konvensiyalar universal xarakterga ega bo'lsa-da, ularning roli mintaqaviy shartnomalar orqali yanada kuchayadi. Markaziy Osiyo misolida xalqaro konvensiyalar normalari mahalliy shartnomalar (masalan, 1992-yilgi Olmaota bitimi) uchun nazariy-huquqiy manba bo'lib xizmat qiladi. Biroq, universal konvensiyalarning samaradorligi barcha qirg'oq bo'yi davlatlarining ushbu hujjatlarni birdek ratifikatsiya qilishi va ularga rioya etishiga bevosita bog'liqdir. Xalqaro suv huquqidagi universal hujjatlar (1992-yilgi Helsinki va 1997-yilgi Nyu-York konvensiyalari) mintaqaviy va ikki tomonlama shartnomalar uchun "model" vazifasini o'taydi. Ularning roli quyidagi uchta yo'nalishda namoyon bo'ladi:

- Huquqiy bo'shliqlarni to'ldirish: Agar qirg'oqbo'yi davlatlari o'rtasida maxsus mintaqaviy bitim mavjud bo'lmasa, universal konvensiya normalari "subsidiary" (to'ldiruvchi) manba sifatida nizolarni hal qilishda asos bo'ladi.

- Muzokaralar uchun platforma: Konvensiyalar davlatlarga kelishuvga erishish uchun zarur bo'lgan huquqiy terminologiya va ramkalarni taqdim etadi.
- Xalqaro standartlashtirish: Suv sifati, monitoring va ekologik audit masalalarida yagona xalqaro standartlarni joriy etish orqali turli davlatlarning ichki qonunchiligini uyg'unlashtiradi.

Konvensiyalarning eng muhim amaliy roli — bu transchegaraviy suv havzalari bo'yicha qo'shma komissiyalar (RBO — River Basin Organizations) tuzish majburiyatini yuklashidir. Ushbu institutlar orqali “doimiy muloqot” rejimi yo'lga qo'yiladi. Konvensiyalar ushbu komissiyalarning vakolatlari, qaror qabul qilish tartibi va ma'lumot almashish tezkorligini huquqiy jihatdan kafolatlaydi. Bu esa suv masalasining siyosiylashuv darajasini kamaytirib, uni texnik-huquqiy hamkorlik darajasiga olib chiqadi.

Xalqaro konvensiyalarning samaradorligi ularning milliy qonunchilikka qay darajada implementatsiya qilinishi bilan o'lchanadi. Bugungi kunda ushbu hujjatlarning roli faqat suv taqsimoti bilan cheklanib qolmay, balki iqlim o'zgarishiga moslashish va transchegaraviy ekotizimlarni himoya qilish kabi yangi vazifalarni ham qamrab olmoqda. Shu bilan birga, konvensiyalarning roli ularni barcha manfaatdor tomonlar tan olgan taqdirdagina to'liq namoyon bo'ladi. Markaziy Osiyo sharoitida universal konvensiya normalarini mintaqaviy xususiyatlarni (suv tanqisligi, gidroenergetika va irrigatsiya muvozanati) hisobga olgan holda tatbiq etish dolzarb huquqiy masala bo'lib qolmoqda.

Konvensiya faqat suvdan foydalanishni emas, balki ekotizimni yaxlit saqlashni birinchi o'ringa qo'yadi. Bu quyi oqim davlatlari (masalan, O'zbekiston) uchun suv sifatini saqlab qolishda huquqiy qalqon vazifasini o'taydi. Transchegaraviy suv oqimlari holati to'g'risidagi ma'lumotlarning shaffofligi — mintaqada “suv diplomatiyasi” va ishonch choralarni mustahkamlashda konvensiyaning asosiy roli ekanligini ta'kidlash lozim. 1992-yildagi Helsinki konvensiyasi transchegaraviy suv resurslarini boshqarishda shunchaki tavsiyaviy xarakterga ega emas, balki davlatlar zimmasiga ekologik monitoring va institutsional hamkorlik bo'yicha aniq yuridik majburiyatlarni yuklaydi. Ayniqsa, Konvensiyaning 9-moddasida nazarda tutilgan qo'shma komissiyalar tuzish talabi Markaziy Osiyo mintaqasida suv taqsimoti mexanizmlarini huquqiy tartibga solishning fundamental asosi bo'lib xizmat qiladi.

MUHOKAMA

Markaziy Osiyo mintaqasi transchegaraviy suv resurslariga eng qaram hududlardan biri hisoblanadi. Amudaryo va Sirdaryo havzalaridagi suv resurslarini taqsimlashda

davlatlarning iqtisodiy manfaatlari turlichaligi asosiy huquqiy va diplomatik muammolarni keltirib chiqarmoqda. Suv resurslarini boshqarish – milliy chegaralardan oshib, xalqaro hamkorlik talab etadigan masala. Transchegaraviy suv obektlari 145 ta mamlakat hududini qamrab olib, dunyo aholisining 40 foizdan ko‘pi ularga bog‘liq holda yashamoqda. Zamonaviy dunyoda suv tanqisligi insoniyatning eng dolzarb muammolaridan biriga aylangan. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma‘lumotlariga ko‘ra, 1,1 milliard odam xavfsiz ichimlik suvidan mahrum, 2,4 milliard kishi adekvat sanitariya xizmatlaridan foydalana olmaydi va yiliga 3,4 million odam, asosan bolalar, suv bilan bog‘liq kasalliklardan halok bo‘ladi. Jahon meteorologik tashkiloti bashoratiga ko‘ra, 2050 yilga kelib dunyo aholisining yarmidan ko‘pi suv tanqisligi mavjud hududlarda yashaydi. Dunyodagi toza suv zaxiralari juda noteng taqsimlangan. Amazonka havzasi, Rossiyaning Sibir mintaqasi, Kanadaning shimoliy qismi va Skandinaviya mamlakatlari suv boy mintaqalar hisoblansa, Shimoliy Afrika, Yaqin Sharq, Markaziy va Janubi-G‘arbiy Osiyo kabi mintaqalar suv tanqisligi bilan kurashmoqda. Bu notenglik ko‘plab geosiyosiy zo‘riqlashlarning asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. Suv taqchilligini mintaqaviy jihatlarini tahlil qiladigan bo‘lsak Markaziy Osiyo okean va dengizlardan olisda joylashgan, qurg‘oqchil hudud bo‘lgani sabab, bu yerda suv manbalari strategik ahamiyat kasb etadi. Mintaqa davlatlari suv resurslari nuqtayi nazaridan ikkiga ajratiladi. Qozog‘iston, Turkmaniston va O‘zbekiston kabi davlatlar “quyi oqim”, Tojikiston va Qirg‘iziston esa “yuqori oqim” mamlakatlar sifatida ko‘riladi.

Ta‘minot jihatdan birinchi guruhdagi mamlakatlar ikkinchi guruhdagi mamlakatlarga bog‘langan. Xususan, O‘zbekistonda foydalanilayotgan jami suv resurslarining 20 foizi mamlakat ichkarisida, 80 foizi esa qo‘shni Tojikiston va Qirg‘iziston hududida shakllanadi. Nisbatan kambag‘al hisoblanadigan “yuqori oqim”dagi ushbu ikki davlat GES va suv omborlari qurish orqali ko‘proq elektr energiya ishlab chiqarish va uni eksport qilishdan manfaatdor, bu esa mintaqadagi boshqa mamlakatlarda qishloq xo‘jaligini suv bilan ta‘minlashda jiddiy muammolarni keltirib chiqaradi. Ushbu jihat ko‘p yillar davomida Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasidagi ziddiyat va kelishmovchilikning asosiy ildizi bo‘lib keldi, suv manbalari sabab mintaqada yuzaga kelgan vaziyatdan yirik davlatlar siyosiy ta‘sir ko‘rsatish quroli sifatida ham foydalandi. Mintaqadagi asosiy muammo — “yuqori oqim” va “quyi oqim” davlatlari o‘rtasidagi manfaatlarning huquqiy muvozanatini topishdir. Tojikiston va Qirg‘iziston (yuqori oqim) suvdan asosan gidroenergetika maqsadlarida foydalanib, qish mavsumida elektr energiyasi ishlab chiqarishni ustuvor deb biladi. O‘zbekiston, Qozog‘iston va Turkmaniston (quyi oqim) esa vegetatsiya davrida qishloq

xo‘jaligini suv bilan ta‘minlashdan manfaatdor.

Amaldagi mintaqaviy kelishuvlarda suvni chiqarish rejimlari va energetika ehtiyojlari o‘rtasidagi kompensatsiya mexanizmlari xalqaro huquqning “adolatli foydalanish” prinsipi asosida to‘liq mukammallashmagan.

Bugungi kunda mintaqaviy suv diplomatiyasining eng dolzarb muammolaridan biri — Afg‘onistonda qurilayotgan “Qo‘sh tepa” kanali masalasidir. Afg‘oniston mintaqadagi transchegaraviy suvlar bo‘yicha ko‘p tomonlama bitimlarning (masalan, Olmaota kelishuvi) ishtirokchisi emas. Bu holat Amudaryo suvini taqsimlashda xalqaro huquqiy “vakuum”ni yuzaga keltirmoqda. Mazkur muammoni hal qilishda Afg‘onistonni xalqaro suv konvensiyalari normalari asosida muloqotga tortish va mintaqaviy suv taqsimoti kvotalariga kiritish yuzasidan huquqiy mexanizmlar ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi. Iqlim o‘zgarishi va resurslarning kamayishi Muzliklarning erishi va iqlim isishi natijasida mintaqada suv resurslarining umumiy hajmi kamaymoqda. Bu esa xalqaro huquqdagi “Precautionary principle” (ehtiyotkorlik prinsipi)ni qo‘llashni talab etadi. Konvensiya normalariga binoan, davlatlar nafaqat suvni taqsimlashi, balki uning ekologik holati va barqarorligini ta‘minlash bo‘yicha hamkorlikni kuchaytirishi lozim.

Mintaqada suv resurslaridan oqilona foydalanish va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nizolarning oldini olish uchun xalqaro huquqiy bazani milliy manfaatlar bilan uyg‘unlashtirish talab etiladi. Tadqiqot davomida aniqlangan muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi huquqiy va diplomatik choralar dolzarb hisoblanadi:

Milliy qonunchilikni modernizatsiya qilish: Yangi Suv kodeksi va xalqaro normalar integratsiyasi

O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Suv kodeksi loyihasi transchegaraviy hamkorlikning huquqiy asosi sifatida xizmat qilishi lozim. Kodeksga quyidagi innovatsion normalarni kiritish taklif etiladi:

- Xalqaro huquq ustuvorligi: Transchegaraviy suv ob‘ektlaridan foydalanishda 1992-yilgi Helsinki konvensiyasi prinsiplarini milliy qonunchilik darajasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llash mexanizmini mustahkamlash.

- Ekologik diplomatiya majburiyati: Vakolatli organlar zimmasiga qo‘shni davlatlar bilan suv sifati va monitoringi bo‘yicha majburiy ma‘lumot almashish vazifasini yuklovchi alohida modda joriy etish.

- Raqamli ishonch: “Smart Water” (Aqlli suv) tizimi orqali olingan raqamli ma‘lumotlarning yuridik maqomini belgilash va ularni davlatlararo nizolarda isbotlovchi

dalil sifatida tan olish. Qo‘shimcha qiladigan bo‘lsak suniy intellekt bu borada yetakchi yordamchi sanaladi u orqali tizimni onsonlik bilan amalga kirishtish va uni tadbiq qilish mumkin sanaladi.

Bundan tashqari kodeksga transchegaraviy suv munosabatlardagi hamkorlik masalalari hamda ziddiyat va muammolarga tezkorlik bilan yechim berishning zamonaviy diplomatik usullari haqida alohida tizimli qo‘shimchalar kiritish zarur hisoblanadi.

Suv resurslarini faqat “miqdoriy taqsimlash” modelidan “umumiy foyda” modeliga o‘tish zarur. Bu borada quyidagi huquqiy mexanizmlar taklif etiladi:

- Qo‘shma investitsion loyihalar: Transchegaraviy daryolarda gidrotexnik inshootlarni qurishda qo‘shni davlatlarning ulushbay ishtirokini ta‘minlash va bu inshootlarni “Davlatlararo obyekt” maqomida boshqarish bo‘yicha ko‘p tomonlama bitimlar tuzish.

- Kompensatsiya mexanizmlari: Yuqori oqim davlatlarining energetik ehtiyojlari va quyi oqimning irrigatsiya manfaatlarini muvozanatlashtirish maqsadida “suv-energiya” almashinuvining huquqiy va iqtisodiy reglamentini ishlab chiqish.

Mintaqaviy xavfsizlik va inklyuziv huquqiy muloqot

Afg‘onistondagi “Qo‘shitepa” kanali qurilishi kabi yangi geografik chaqiriqlar mintaqada yangi huquqiy yondashuvni talab etadi:

- Institutsional integratsiya: Afg‘onistonni Markaziy Osiyoning yagona huquqiy suv makoniga bosqichma-bosqich jalb etish, xususan, uni Davlatlararo muvofiqlashtiruvchi suv xo‘jaligi komissiyasi (MKVK) ishiga inklyuziv tarzda qo‘shish.

- Nizolarni preventiv hal etish: Mintaqa davlatlari o‘rtasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan huquqiy tushunmovchiliklarni xalqaro arbitraj darajasiga olib chiqmasdan, mintaqaviy Ekspertlar kengashi darajasida hal etishning doimiy mexanizmini yaratish.

Transchegaraviy suv tanqisligini yumshatishning huquqiy drayveri sifatida Suv kodeksida quyidagi rag‘batlantiruvchi normalar aks etishi lozim:

- Suv tejovchi texnologiyalarni (tomchilatib sug‘orish, yopiq tizimlar) joriy etgan fermer va tadbirkorlar uchun uzoq muddatli soliq imtiyozlari va subsidiyalar berish tartibini qonuniy mustahkamlash.

Ushbu takliflarning hayotga tatbiq etilishi O‘zbekistonning suv diplomatiyasidagi yetakchiligini mustahkamlaydi va Markaziy Osiyoda “suv tinchligi” (Water Peace) konsepsiyasini barqarorlashtirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, transchegaraviy suv resurslarini muhofaza qilish bugungi kunda xalqaro huquqning eng dolzarb va strategik yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Suv resurslari nafaqat tabiiy boylik, balki davlatlarning barqaror rivojlanishi, ekologik xavfsizligi, oziq-ovqat xavfsizligi va mintaqaviy barqarorlikning asosiy omilidir. Xalqaro huquqiy meʼyorlar, xususan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan 1997-yildagi “Xalqaro suv oqimlaridan kema qatnovi bilan bogʻliq boʻlmagan maqsadlarda foydalanish huquqi toʻgʻrisidagi Konvensiya” hamda 1992-yildagi “Transchegaraviy suv oqimlari va xalqaro koʻllarni muhofaza qilish hamda ulardan foydalanish toʻgʻrisidagi Konvensiya” transchegaraviy suv resurslarini boshqarishning universal huquqiy asosini yaratdi. Ushbu xalqaro hujjatlar suv resurslaridan adolatli va oqilona foydalanish, boshqa davlatlarga sezilarli zarar yetkazmaslik, oʻzaro hamkorlik qilish, axborot almashish va nizolarni tinch yoʻl bilan hal etish kabi fundamental prinsiplarga asoslanadi. Markaziy Osiyo sharoitida bu masala yanada muhimdir. Mintaqadagi Amudaryo va Sirdaryo havzalari davlatlar oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlikni kuchaytiradi. Shu sababli, suv resurslarini boshqarishda xalqaro huquq normalariga qatʼiy rioya etish, mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash va oʻzaro ishonchga asoslangan mexanizmlarni rivojlantirish zarur. Kelgusida transchegaraviy suv resurslarini samarali boshqarish uchun xalqaro konvensiyalarni milliy qonunchilikka izchil implementatsiya qilish, institutsional hamkorlikni rivojlantirish, zamonaviy suv tejoychi texnologiyalarni joriy etish hamda ekologik diplomatiyani kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Faqat xalqaro hamkorlik, huquqiy majburiyatlarga sodiqlik va umumiy manfaatlarga asoslangan yondashuv orqali transchegaraviy suv resurslaridan barqaror, adolatli va samarali foydalanishni taʼminlash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Transchegaraviy suv oqimlari va xalqaro ko‘llarni muhofaza qilish va foydalanish to‘g‘risidagi konvensiyasi” (UNECE Water Convention)
2. BMTning “Xalqaro suv oqimlaridan notransport maqsadlarida foydalanish to‘g‘risidagi konvensiyasi”
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023
4. 1997-yilgi “BMTning xalqaro suv oqimlaridan foydalanish to‘g‘risida”gi konvensiyasi
5. 1992-yilgi “Transchegaraviy ochiq suv oqimlari va xalqaro ko‘llarni muhofaza qilish hamda foydalanish bo‘yicha konvensiya”
6. <https://kun.uz/news/2025/08/26/transchegaraviy-suv-resurslarini-boshqarish-xalqaro-huquq-va-zamonaviy-yondashuvlar>